



## YOSH QIZLARDA (20-25 YOSH) TUXUMDON ENDOMETRIOZI

***Bo'ronova Moxiniso Shavkatovna***

*Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti  
davolash ishi yo'nalishi 2-kurs talabasi.*

***Ilmiy rahbar: Sanoyev Baxtiyor Abdurasulovich***

*Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti patologik  
anatomiya va patologik fiziologiya kafedrasi dotsenti.*

***Annotatsiya.*** Ushbu maqola reproduktiv yoshdagi ayollar orasida hozirgi kundagi dolzarb ginekologik muammolardan biri hisoblangan tuxumdon endometriozining 20-25 yoshli qizlar orasida uchrash xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot jarayonida kasallikning epidemiologik ko'rsatkichlari, asosiy etiologik omillari, jumladan gormonal disbalans, immun tizimi buzilishlari, genetik moyillik hamda tashqi muhit ta'sirlari tahlil qilindi. Yosh bemorlarda kasallikning kech diagnostika qilinishi, klinik simptomlarning boshqa ginekologik patologiyalar bilan o'xshashligi hamda reproduktiv funksiyaga salbiy ta'siri alohida yoritildi. Tadqiqot natijalari tuxumdon endometriozining yosh ayollar orasida dolzarb tibbiy muammo ekanligini tasdiqlaydi va kasallikni erta aniqlash, profilaktika choralarini takomillashtirish hamda yosh ayollar orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

***Kalit so'zlar:*** tuxumdon, endometrioz, reproduktiv yosh, etiologiya.

***Abstract:*** This article is devoted to the study of the characteristics of ovarian endometriosis, which is considered one of the most urgent gynecological problems among women of reproductive age, among girls aged 20-25. During the study, epidemiological indicators of the disease, main etiological factors, including hormonal imbalance, immune system disorders, genetic predisposition and environmental influences were analyzed. Late diagnosis of the disease in young patients, similarity of clinical symptoms with other gynecological pathologies and



negative impact on the reproductive system were highlighted. The results of the study confirm that ovarian endometriosis is an urgent medical problem among young women and indicate the need for early detection of the disease, improvement of preventive measures and formation of a healthy lifestyle among young women.

**Key words:** ovary, endometriosis, reproductive age, etiology

**Абстрактный:** Данная статья посвящена изучению характеристик эндометриоза яичников, который считается одной из наиболее актуальных гинекологических проблем среди женщин репродуктивного возраста, в частности, девушек 20-25 лет. В ходе исследования были проанализированы эпидемиологические показатели заболевания, основные этиологические факторы, гормональный дисбаланс, нарушения иммунной системы, генетическая предрасположенность и влияние окружающей среды. Были отмечены поздняя диагностика заболевания у молодых пациенток, сходство клинических симптомов с другими гинекологическими патологиями и негативное влияние на репродуктивную функцию. Результаты исследования подтверждают, что эндометриоз яичников является актуальной медицинской проблемой среди молодых женщин и указывают на необходимость ранней диагностики заболевания, совершенствования профилактических мер и формирования здорового образа жизни у молодых женщин.

**Ключевые слова:** эндометриоз, яичники, репродуктивный возраст, этиология.

Tadqiqot dolzarbligi: hozirgi kunda tuxumdon endometriozi reproduktiv yoshdagi ayollar orasida keng tarqalgan ginekologik kasalliklardan biri hisoblanadi. So'nggi o'n yillikda tuxumdon endometriozi ayniqsa yosh – 20-25 yoshli qizlar orasida uchrash holatlarining ortib borayotgani kuzatilmoqda. Kasallikning erta bosqichlarda kam simptomli kechishi natijasida diagnostika ko'pincha kechikadi, bu esa reproduktiv funksiyaning buzilishi va bepushtlim rivojlanishiga olib kelishi



mumkin. Shu sababli yosh ayollar orasida tuxumdon endometriozining uchrash xususiyatlarini o'rganish, uning xavf omillarini aniqlash va erta diagnostika usullarini takomillashtirish muhim ilmiy- amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi: 20-25 yoshli qizlarda tuxumdon endometriozining etiologic omillarini o'rganish hamda klinik kechish xususiyatlarini baholash.

Material va metodlar: tuxumdon to'qima bo'laklari 10% - neytral formalinda fiksatsiya qilindi, oshib boruvchi konsentratsiyali spirtlarda suvsizlantirildi va parafinga qo'yildi. Parafin bloklaridan qalinligi 5-6 mkm bo'lgan seriyali kesmalar (LEICA 4RM 2145 mikrotomi, Germaniya) tayyorlandi hamda gematoksilin- eosin, toluidine ko'ki va Van- Gizon bo'yog'i bo'yicha pikrofuksin bilan bo'yaldi. Gistologik preparatlarni o'rganish Leica DMD 1-08 (Germaniya) hamda ProgRes C3 fotoapparati va Axio Vision (C.Zeiss,

Germaniya) tasvirlarni tahlil qilish dasturi bilan jihozlangan AxioImager Z1 mikroskoplari yordamida amalga oshirildi.

Ayollar reproduktiv tizimi faoliyatiga qarab odatda 3 asosiy yosh davriga bo'linadi:

1. Reproductiv (fertile) davr. Bu davr o'z ichiga 15-49 yosh atrofidagi ayollarni qamrab oladi. Bu davrning o'ziga xos bir nechta xususiyatlari bor. Bular: hayz sikli muntazam kechadi, ovulyatsiya jarayoni amalga oshadi, homilador bo'lish imkoniyati yuqori, bu davr mobaynida estrogen va progesterone faol ishlab chiqariladi. Reproductiv davr o'z navbatida yana 3 ta kichik davrlarga bo'linadi:

1. Erta reproduktiv davr → 15-25 yosh
2. Optimal reproduktiv davr → 25-35 yosh
3. Kech reproduktiv davr → 35-49 yosh.

2- davr menopauza davri deb ataladi. Bu davrga 45-50 yosh atrofidagi ayollar kiradi. Bu davrning ham bir nechta o'ziga xos xususiyatlari bor. Bular: hayz sikli buzila boshlaydi, ovulyatsiya kamroq bo'ladi, estrogen gormonining ishlab chiqarilish darajasi pasayadi, klimakterik belgilar paydo bo'ladi (issiq bosishi, kayfiyat o'zgarishi).



3- davr postmenopauza davri deb nomlanadi. Bu davr oxirgi hayzdan 12 oy o'tgandan keyin ya'ni odatda 50 yoshdan keyin boshlanadi. Bu davrning ham o'ziga xos bir nechta xususiyatlari bor. Bular: hayz sikli butunlay to'xtaydi, tuxumdon faoliyati susayadi, estrogen gormoni juda kam ishlab chiqariladi, osteoporoz va yurak kasalliklari xavfi ortadi. Har bir davrda o'ziga xos kasalliklar rivojlanadi. Masalan: reproduktiv yoshda endometrioz, yallig'lanish kasalliklari, ektopek homiladorlik. Premenopauzada esa bachadon miomasi, endometriy giperplaziyasi kabi kasalliklar rivojlanadi.

Tuxumdon endometriozi – bu endometrial (bachadon ichki shilliq qavatiga) o'xshash to'qimaning tuxumdon ichida yoki ustida o'sishi bilan kechadigan surunkali ginekologik kasallik. Bu kasallik odatda reproduktiv yoshdagi ayollarda uchraydi va asta – sekin rivojlanib boradigan kasallik hisoblanadi. Kasallikning hozirgi yosh qizlarda ko'payib borayotganining asosiy sabablari quyidagilar: erta hayz boshlanishi, stress, gormonal buzilish, kech tug'ruq va ekologik omillar. Kasallikning birinchi navbatdagi simptomlari quyidagilar: tos sohasidagi og'riq, juda og'riqli hayz, hayz tartibsizligi, qorin dam bo'lishi, ko'ngil aynishi. Bu kasallikda ba'zi ayollarda umuman simptomlar kuzatilmaslari ham mumkin. Agar kasallik og'ir bosqichda bo'lsa ichak yoki siydik yoriqlarida og'riqlar kuzatilishi mumkin. Kasallikning og'ir bosqichi “shokolad kistasi” deb ham ataladi

Tuxumdon endometriozi gistologik ko'rinishi.

Tuxumdon endometriozi gistologik ko'rinishi. Gematoksin-eozin bo'yog'ida bo'yalgan.

Xulosa. Shunday qilib, tuxumdon endometriozi 20-25 yoshli qizlar orasida tobora ko'proq uchrayotgan dolzarb ginekologik muammolardan biri hisoblanadi. Kasallikning ko'pincha kam simptomli yoki yashirin kechishi natijasida uning diagnostikasi kechikadi, bu esa reproduktiv funksiyaning buzilishi hamda bepushtlik rivojlanishi xavfini oshiradi. Tadqiqot natijalari tuxumdon endometriozi rivojlanishida gormonal disbalans, irsiy moyillik, immune tizimi o'zgarishlari va tashqi muhit omillarining muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Shu sababli yosh ayollar orasida kasallikni erta aniqlash, profilaktik ko'riklarni kengaytirish hamda



zamonaviy diagnostika usullarini qo'llash reproduktiv salomatlikni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gistologiya, sitologiya va embriologiya. 2022-yil
2. Patologik anatomiya. 2024-yil
3. Akusherlik va ginekologiya. 2021-yil
4. Ginekologik kasalliklar. 2021-yil

Axborot manbalari ro'yxati:

5. <https://med24.uz> 6. <https://www.apollohospitals.com> 7. <https://ghealth121.com>